

**OILADA NOQISHLOQ XO'JALIK FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNING TALABALAR TOMONIDAN FANLARNI O'ZLASHTIRISH KO'RSATKICHIGA TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASHDA YANGICHA YONDASHUV**

**Muratov Shukrullo Abduraimovich -**  
PhD doktorant, Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute

**Annotasiya.** Ilmiy tadqiqot ishida oliy ta'limotga ega bo'lish ahamiyati, uning kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda o'rni nazariy o'rganilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 538 nafar respondent (talaba)lardan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlaridan foydalanilgan holda, ular tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baho berishda Ordered logistic regressiya modelidan foydalanilgan. Talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirishga ta'sir etuvchi omillar: oilaning asosiy daromadi noqishloq xo'jalik faoliyatidan kelishi, jinsi, oliy ta'lim muassasasida davlat grantida o'qishi, talabalarning tahsil olayotgan kursi, talabaning o'qish hududi, doimiy yashash hududi, fanlarni o'zlashtirishda foydalanilgan manbalar va oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tanlovlarda talabalar ishtirogi 1 foiz ( $p < .01$ )likda statistik muhim ahamiyatga egaligi aniqlangan. Shuningdek, erkak (o'gil) talabalarga nisbatan ayol (qiz) talabalar hamda doimiy yashash hududi shaharda bo'lgan talabalarga nisbatan qishloq hududida doimiy yashaydigan talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqoriligi ilmiy asoslangan. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirish borasida ilmiy asoslangan xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim muassasalari, fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi, oila daromadi, noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlar, Ordered logistic regressiya modeli, marginal ta'sir.

**НОВЫЙ ПОДХОД К ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОЦЕНКЕ ВЛИЯНИЯ ДОХОДОВ ОТ НЕСЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СЕМЬЕ НА ПОКАЗАТЕЛЬ УСВОЕНИЯ ПРЕДМЕТОВ СТУДЕНТАМИ**

**Muratov Shukrullo Abduraimovich -**  
докторант, Ташкентский институт ирригации и механизации сельского хозяйства

**Аннотация.** В научно-исследовательской работе были теоретически изучены значение получения высшего образования, его роль в сокращении бедности и повышении благосостояния населения. Кроме того, модель регрессии Ordered logistic использовалась для экономической оценки факторов, влияющих на усвоение ими предметов, с использованием данных социального опроса 538 респондентов (студентов), обучающихся в высших учебных заведениях. Факторы, влияющие на усвоение предметов студентами: основной доход семьи, доходы от несельскохозяйственной деятельности, пол, обучение в высшем учебном заведении по государственному гранту, курс обучения студентов, территория обучения студента, постоянное место жительства, источники, используемые для освоения предметов и участие студентов в конкурсах, проводимых в высших учебных заведениях, статистически значимы в 1 процентах ( $p < .01$ ). Также научно обосновано, что показатели усвоения предметов студентами, постоянно проживающими в сельской местности, выше, чем студентами-женщинами (девушками) по сравнению со студентами-мужчинами (парнями), а также студентами, постоянно проживающими в городской местности. Даны научно обоснованные заключения и предложения по повышению показателей усвоения студентами предметов в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** высшие учебные заведения, показатель усвоения дисциплин, доход семьи, доход от несельскохозяйственной деятельности, модель регрессии Ordered logistic, эффект marginal.

**A NEW APPROACH TO ECONOMIC ASSESSMENT OF THE INFLUENCE OF INCOME FROM NON-AGRICULTURAL ACTIVITIES IN THE FAMILY ON THE INDEX OF OBJECT ASSEMBLY BY STUDENTS**

**Muratov Shukrullo Abduraimovich -**  
PhD student, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

**Annotation.** The research work theoretically studied the importance of obtaining higher education, its role in reducing poverty and increasing the well-being of the population. In addition, the Ordered logistic regression model was used to economically evaluate the factors affecting their mastery of subjects, using data from a social survey of 538 respondents (students) studying in higher education institutions. Factors affecting the acquisition of subjects by students: basic family income, income from non-farm activities, gender, study at a higher educational institution on a state grant, student course of study, student territory of study, permanent residence, sources used for mastering subjects and student participation in competitions held in higher education institutions are statistically significant at 1 percent ( $p < .01$ ). It is also scientifically substantiated that the indices of mastering subjects by students permanently residing in rural areas are higher than by female students (girls) compared to male students (boys), as well as by students permanently residing in urban areas. Scientifically grounded conclusions and proposals are given to increase the indicators of mastering by students of subjects in higher educational institutions.

**Key words:** higher education institutions, mastery rate, family income, non-agricultural income, Ordered logistic regression model, marginal effect.

**Kirish.** COVID-19 pandemiyasi global qashshoqlik, daromadlar tengsizligiga ta'sir ko'rsatdi[1]. 2021 yilga kelib 108 milliondan ortiq odamni o'ta qashshoqlikka olib kelishi[2] yosh avlodining kelajagini xavf ostiga qo'yimoqda[3]. Avvalo, dunyoda 15-24 yoshli yoshlar o'rtasida savodxonlik 2000-2019 yillar davomida 5,2 foizga oshgan [<https://data.worldbank.org>] bo'lsa, pandemiya sharoitida uning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[4].

Tadqiqotchilar [5] mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishida asosiy iqtisodiy omil sifatida inson kapitalining ahamiyati muhimligini ta'kidlashadi. Barqaror iqtisodiy o'sish mamalakatda aholining turmush darajasi, farovonligi, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma xizmatlari sifati va aholi ehtiyoqidagi kapitalga bog'liqdir. Biroq, aholi ehtiyoqidagi kapitalning shakllanishi bevosita aholining ta'lim darajasi, ularning savodxonligiga bog'liqdir. Vaholanki, oilada ota-onaning ta'lim darajasi yoki ularning savodxonligi oila daromadiga va farzandlarining ta'lim olish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq dunyoda ishsizlik, kasallik va ota-onalarning savodsizligi kabi kambag'allik bilan bog'liq omillar yoshlarning ta'lim olish darajasini 2 barobarga pasaytiradi[21].

Shuningdek, COVID-19 pandemiya sharoitida aholi jon boshiga daromadning 5 foizga qisqarishi, dunyo kambag'allar soni 2018 yilga nisbatan 80 milliondan oshib ketishi ilmiy asoslangan[6] holda bashorat qilinmoqda. Vaholanki, kambag'al yoki kam ta'minlangan oilalar soning oshishi, oila a'zolarining ta'lim olish darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Kam ta'minlangan oilalar farzandlarining ijtimoiy mavqei o'zgartirishning muhim usuli - ta'lim hisoblanib, oila daromadi oila farzandining ta'lim darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi va oila daromadining oshishi ularning ta'lim darajasini yaxshilaydi[7]. Shuningdek, ota-onalarning ta'lim darajasi, oilaviy daromadlar va o'quv qobiliyatlari ta'limni tanlashda muhim omil hisoblanadi[8]. Ya'ni, oilada farzandning kollejda yoki oliy ta'limda o'qish ehtimoliga oilaning daromadi va farzandining individual qobiliyati sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi[9]. Biroq, oliy ta'lim tizimiga ajratiladigan davlat byudjet cheklovlari, oliy ta'limga qo'yiladigan talablarning kuchayishi kam ta'minlangan oila farzandlari uchun oliy ta'limda o'qish imkoniyatini pasaytiradi. Natijada, mamlakat aholisi o'rtasida kambag'allikning oshishiga olib kelishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitining shakllanishida ta'lim sifati va unga ta'sir etuvchi asosiy omil bo'lgan infratuzilma xizmatlarining rivojlanishi qishloq hududlari aholisi, ayniqsa kambag'al aholi qatlami farzandlari uchun oliy ma'lumotli bo'lish imkoniyatini cheklaydi. Biroq, qishloq hududlarida kam ta'minlangan oila farzandlarining oliy ma'lumotga ega bo'lishida davlat byud-

jeti mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlanishi aholi o'rtasida kambag'allikning qisqarishiga ta'sir ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Oliy ta'lim [10] - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslangan, bakalavriat va magistratura bosqichidan iborat. O'zbekistonda 2020 yilda oliy ta'lim muassasalari soni 131 tani tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilga nisbatan 54 taga oshgan. Shuningdek, ohirgi 5 yil davomida talabalar soni 2,1 martaga oshgan bo'lsa, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olishi 16 foizga o'sgan [<https://edu.uz>].

Biroq OTMlarida ta'lim olish jarayoni to'lov-shartnoma asosida tashkil etilishi oilada a'zolarining OTMlarda o'qish imkoniyatlarini cheklasa, to'lov-shartnoma asosida o'qayotgan talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirishiga ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolarining ta'lim olishi yoki ta'limda fanlarni to'liq o'zlashtirilishi bevosita oila daromadiga bog'liqdir. Acemoglu D. va Pischke J.S.[11] lar ilmiy tadqiqot ishida oilada daromadning 10 foizga oshishi, ta'limda qabulni 1,4 punktga oshirishiga ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslagan. Biroq, daromadlar qishloq xo'jalik va noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlar[12]dan shakllanib, tadqiqotchilar tomonidan ushbu daromad manbalari qay darajada fanlarni o'zlashtirishga ta'siri o'rganilmagan. Biroq, Sari R. va Soyta U.[13]lar ilmiy tadqiqot ishida daromadni ko'paytirish uchun boshlang'ich, o'rta ta'lim va oliy ta'limga sarmoya kiritish samarali bo'lishini ilmiy asoslagan. O'quvchi yoki talabaning ta'lim olishi uchun oila a'zolari tomonidan sarflanadigan pul mablag'lar uzoq muddatli investitsiyalar hisoblanib, ularni qoplash muddatlari talaba tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichiga bog'liqdir. Vaholanki, ota-ona tomonidan farzandlari uchun sarflanadigan investitsiyalar qiymati, ularning qishloq xo'jaligi yoki noqishloq xo'jalik faoliyatida band bo'lishi bilan bog'liqdir. Oila a'zolarining noqishloq xo'jalik faoliyatida band bo'lishi qishloq xo'jaligida ish vaqtini kamayishiga ta'sir ko'rsatsa-da, oila daromadini kamayishiga ta'sir ko'rsatmaydi[14].

Ilmiy tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasida talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baho berish va ularning bilimni oshirish borasida ilmiy asoslangan xulosa va takliflar berish.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalaridan olingan so'rovnoma ma'lumotlari tavsifi va foydalanilgan metodlar tadqiqot ishining 1-bo'limida yoritildi. Talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirishga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baho berish, ya'ni model tahlil natijalari ishning 2-bo'limida ifodalanildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishida olingan tahlil natijalari asosida berilgan xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar keltirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy maqolani o'rganishda onlayn so'rovnoma ma'lumotlaridan foydalanildi. Oliy ta'lim muassalarida 1-kurs talabalari tomonidan 1-semistrda o'tilgan fanlarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari yanvar va fevral oylariga to'g'ri kelishini e'tiborga olgan holda so'rovnoma mart oyida o'tkazildi. So'rovnomada 568 nafar respondent(talaba) ishtirok etgan. Biroq, 30 nafar respondent berilgan so'rovlarga to'liq javob bermaganligi uchun model tomonidan xato o'zgaruvchilar sifatida qabul qilinmadi.

So'rovnoma - talaba tomonidan fanlarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (qoniqarli, yaxshi, a'lo), oilasining asosiy daromad(qishloq xo'jaligi,

noqishloq xo'jalik faoliyati)i, doimiy yaxshash hududi (qishloq, shahar), talaba tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasasi joylashgan hudud (o'z hududi, boshqa hudud), o'qish kursi, ta'lim shakli(sirtqi va kechki, kunduzgi), o'qish shakli(to'lov-shartnoma, davlat granti), yoshi, jinsi, fanlarni o'zlashtirishda foydalaniladigan manbalar va oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan tanlovlarda ishtiroqi[15] bilan bog'liq o'zgaruvchilar bilan shakllantirildi.

So'rovnoma ma'lumotlari tavsifiga ko'ra (1-jadval), mustaqil va bog'liq o'zgaruvchilarda respondentlar ishtiroqi turli xil bo'lishi, qaysiki so'rovlarga to'liq javob berilmaganligi bilan ifodalashimiz mumkin.

1-jadval

Respondentlar tavsifi va statistikasi\*

Variable	Obs	Mean	Std.Dev.	Min	Max
O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi, (UZ)	544	2.142	.569	1	3
Oilaning asosiy daromadi, (OD)	545	.484	.500	0	1
Jinsi, (J)	545	.684	.465	0	1
Yoshi, (Yo)	545	21.804	3.251	17	32
OTMda davlat grati asosida o'qiydi, (USH)	545	.229	.421	0	1
OTMda ta'lim shakli, (TSH)	545	.938	.242	0	1
Tahsil olayotgan kurs, (UK)	545	2.075	1.412	1	6
OTMda o'qish hududi, (OTMH)	541	.460	.499	0	1
Doimiy yashash hududi, (DYH)	545	0.385	0.487	0	1
Fanlarni o'zlashtirishda foydalanilgan manbalar, (FM)	544	2.347	1.193	1	5
OTMda tanlovlarda ishtirok etishi (TI)	542	.280	.450	0	1

*Manba:* Muallif tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlari.

Respondentlar tomonidan fanlarni o'rtacha o'zlashtirishi 2.142 tashkil etib, ishtirokchilarning aksariyati yaxshi va a'lo ko'rsatkichlarda fanlarni o'zlashtirganligini ko'rsatmoqda. Ularning oilasining asosiy daromadida noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlar hissasi 48,4 foizi to'g'ri kelishi, qaysiki oilalarning shahar hududida joylaganligi bilan ifodalash mumkin.

Biroq, respondentlarning 38,5 foiz shahar hududida doimiy yashashi qishloq hududida joylashgan ayrim oila xo'jaliklarining ham asosiy daromadi noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlar tashkil etishini ko'rsatmoqda. Fanlarni o'zlashtirishda talabalarning o'qish shakli muhim ahamiyatga ega bo'lib, respondentlarning 22,9 foiz davlat granti asosida o'qiydi. Biroq, qaysi hudud oliy ta'lim muassasasida davlat granti yoki to'lov-shartnoma asosida o'qishi to'g'risida ayta olmaymiz. Vaholanki, respondentlarning 46,0 foizi boshqa hudud(viloyat yoki shahar)da joylashgan oliy ta'lim muassasasida tahsil oladi.

Talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirishda foydalanilgan manbalar sifatida: fanlar majmuasi, oliy ta'lim muassasasi kutubxona fondi, saytiga yuklangan kitob va ma'ruza matnlari, boshqa internet manbalari va kutubxona fondi ko'rsatkich sifatida olindi. Talabalarning aksariyati fanlarni o'zlashtirishda 2 va undan ortiq manbalardan foydalanishini

ko'rsatmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan turli hil tanlovlarda ishtirok etgan respondentlar 28,0 foizni tashkil etgan.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil o'zgaruvchilar orasida bog'lanishning kuchli bo'lishi[16] standart xatolikni oshirishga olib keladi. Ya'ni, standart xatolarni haddan tashqari oshishi orqali, multikollinearlik ba'zi mustaqil o'zgaruvchilarni statistik jihatdan ahamiyatsiz ko'rsatadi. Bunday holatni aniqlashda, olingan natijalarimiz mustahkam bo'lishini ta'minlash uchun diagnostika test o'tkazildi.

Multikollinearlikni aniqlashda mustaqil o'zgaruvchilar uchun VIF (Variance inflation factor) test [17] o'tkazildi. VIF test - ko'p regressiv o'zgaruvchilar to'plamidagi multikollinerlik miqdorining o'lchovidir. Matematik jihatdan, regressiya modelining o'zgaruvchisi uchun VIF umumiy model dispersiyasining faqat bitta mustaqil o'zgaruvchini o'z ichiga olgan modelning dispersiyasiga nisbatiga teng. Bu nisbat har bir mustaqil o'zgaruvchi uchun hisoblanadi. VIFning yuqori darajada bo'lishi[18], ko'p regressiya tahlillari bilan bog'liq natijaga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum. Biroq, bizda olingan VIF test natijasiga ko'ra uning o'rtacha qiymati 1,290 ni tashkil etib o'zgaruvchilar o'rtasida multikollinearlik yo'qligini ko'rsatmoqda.

Mustaqil o'zgaruvchilarning bog'liq o'zgaruvchiga ta'sirini iqtisodiy baholashda Ordered Logistic

Regressiya modelidan foydalanildi. Chunki, bizda bog'liq o'zgaruvchi, ya'ni talabalar tomonidan fanlarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi sifat yoki tartibli o'zgaruvchi[19] bo'lganligi uchun ushbu model mos keladi. Ya'ni, ilmiy tadqiqot ishida ikkitadan ortiq tushuntirishli o'zgaruvchilardan iborat bo'lgan bitta javob o'zgaruvchisi hisobga olinadi[20].

STATA-16" kompyuter dasturi vositasida, maskur modeldan foydalanib talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi mustaqil o'zgaruvchilarga iqtisodiy baho berildi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlil natijalariga ko'ra (2-jadval), talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirishda oilaning noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlari 1 foiz ( $p<.01$ ) likda statistik muhim ahamiyatga ega. Oilaning asosiy daromadi noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlar hisobidan shakllanishi talabalar tomonidan

fanlarni o'zlashtirish nisbatini 69,9 foizga oshiradi.

Biroq, talabalar jinsi erkak bo'lishi 1 foiz ( $p<.01$ )likda statistik muhim ahamiyatga ega bo'lib, fanlarni o'zlashtirishi nisbatini 52,2 foizga kamaytiradi. Ya'ni, oliy ta'limda tahsil olayotgan ayollar erkaklarga qaraganda fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqoriligini ko'rsatmoqda. Vaholanki, talabalar davlat granti asosida o'qishi ular tomonidan fanlarni o'zlashtirishi 1 foiz( $p<.01$ )likda statistik ahamiyatga ega. Talabalarning davlat granti asosida tahsil olishi ular tomonidan fanlarni o'zlashtirishi nisbatini 108,8 foizga oshiradi. Xususan, oliy ta'lim tizimida talabalar uchun belgilangan stepindiya miqdori bilan ayniqsa, davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi o'rtasida bog'liqlik bor. Biroq, stepindiyasiz to'lov-shartnoma tizimi asosida tahsil olayotgan talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2-jadval

Talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash tahlili

UZ	Koef.nisbati	Sta.xato.	z	P> z	[95% ishonch	oraliq]	Muhim
OD	1.699	.342	2.63	0.009	1.14478	2.521774	***
J	.478	.102	-3.47	0.001	.3152123	.7259005	***
Yo	.958	.038	-1.06	0.289	.8859011	1.036802	
USH	2.088	.476	3.23	0.001	1.335805	3.265625	***
TSH	2.849	1.284	2.32	0.020	1.178156	6.892373	**
UK	1.292	.119	2.78	0.005	1.078555	1.54768	***
OTMH	3.104	.682	5.16	0.000	2.018434	4.77501	***
DYH	.465	.105	-3.38	0.001	.297933	.7246652	***
FM	1.246	.103	2.68	0.007	1.060797	1.464789	***
TI	2.424	.533	4.02	0.000	1.575121	3.7321	***
cut1	-1.15	1.029	.b	.b	-3.167	.868	
cut2	2.932	1.039	.b	.b	.896	4.968	
O'rtacha bog'. o'zgaruvchi		2.138	SD bog'. o'zgaruvchi		0.569		
R kvadrat		0.147	Respondentlar soni		538.000		
Chi-kvadrat test		134.264	Prob > chi2		0.000		
Akaike crit. (AIC)		805.372	Bayesian crit. (BIC)		856.826		

\*\*\*  $p<.01$ , \*\*  $p<.05$ , \*  $p<.1$


O'zbekiston oliy ta'lim muassalarida kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari mavjud bo'lib, talabalarning kunduzgi ta'lim shaklda tahsil olishi ular tomonidan fanlarni o'zlashtirishi 5 foiz ( $p<.05$ )likda statistik ahamiyatga ega. Vaholanki, talabalarning kunduzgi shaklda tahsil olishi fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkich nisbatini 184,9 foizga oshiradi. Biroq, talabalarning doimiy yashash hududi shaharda joylashishi ular tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkich nisbatini 53,5 foizga kamaytirishini ko'rsatmoqda. Ya'ni, 1 foiz( $p<.01$ )likda statistik muhim ahamiyatga ega bo'lib, qishloq hududida doimiy yashashga ega bo'lgan talabalar shaharda doimiy yashayotgan talabalarga qaraganda fanlarni yaxshi o'zlashtira olishligini izohlamogda. Talabalar boshqa hudud(viloyat, shahar) oliy ta'lim muassalarida tahsil olishi 1 foiz ( $p<.01$ )likda statistik muhim ahamiyatga ega bo'lib, fanlarni

o'zlashtirish ko'rsatkichi nisbatini 2,1 martaga oshirish mumkin. Xususan, talabalar yashash hududidan uzoq viloyat yoki shaharda joylashgan oliy ta'lim muassalarida o'qishi davomida ijara xonadonlari yoki talabalar yotoqxonasida turishi, qaysiki jihatdan ularni fanlarni o'zlashtirishida vaqt imkoniyati mavjudligi yoki uy xo'jalik ishlaridan holi bo'lishi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirishida foydalaniladigan manbalarni bir birlikka oshishi fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi nisbatini 24,6 foizga oshiradi. Mazkur ko'rsatkich 1 foiz( $p<.01$ )likda statistik muhim ahamiyatga ega bo'lib, oliy ta'lim muassalarini fanlar bilan bog'liq adabiyotlar bilan boyitishini izohlaydi. Shuningdek, oliy ta'lim muassalarida turli xil tanlovlarni tashkil etilishi, unda talabalar qamrovuni kengaytirish fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkich nisbatini 142,4 foizga oshiradi.

Xususan, ushbu ko'rsatkich 1 foiz ( $p < .01$ ) likda statistik muhim ahamiyatga ega bo'lib, tanlovlarda ishtirok etish yoki unda g'olib bo'lish uchun talabalarni ko'proq fanlarni o'zlashtirishga undaydi.

Talabalar tomonidan fanlarni a'lo natijaga o'zlashtirishida oilaning noqishloq xo'jalik faoliyatida keladiga daromadlarning marginal ta'siri 0,08 ehtimollikda izohlamoda (1-grafik).



1-grafik. Talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarning marginal ta'siri

Biroq, erkak(o'g'il bola) talabalarga qaraganda ayol(qiz) talabalar fanlarni a'lo ko'rsatkichda o'zlashtirishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, doimiy yashash hududi qishloq hududi bo'lgan talabalar shahar hududida doimiy istiqomat qiladigan talabalarga qaraganda a'lo bahoda o'qish ehtimolligi yuqoridir. Talabalarining boshqa hududda joylashgan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi, ular tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichiga marginal ta'sirini 0,17 ehtimollikda izohlamoda.

**Xulosa va takliflar.** Chekka qishloq hududlarida yashovchi aholi qatlami oliy ma'lumotga ega bo'lishi, kamida u o'z-o'zini bandlik(yakka tadbirkorlik faoliyati) bilan ta'minlashi mumkin. Biroq, oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichiga ularning oila daromadi ta'siri ko'rsatadi. Ya'ni, qaysiki oilada daromad asosan noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlar hisobidan shakllansa, oila a'zosining oliy ta'lim muassasasida tahsil olish jarayonida fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkich nisbati 69,9 foizga oshishi ilmiy asoslandi. Shuningdek, doimiy yashash hududi qishloqda joylashgan talabalar shaharda doimiy yashashga ega bo'lgan talabalarga qaraganda fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqoriligi aniqlandi. Xususan, qishloq hududida doimiy yashashga ega bo'lgan yoshlar viloyat markaziga yoki boshqa viloyatda joylashga oliy ta'lim muassasasiga o'qishi, qaysiki jihatdan fanlarni o'zlashtirishga vaqt imkoniyati va uy xo'jalik ishlarida holi bo'lishi ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oliy ta'lim tizimida boshqa hududda joylashgan oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarining o'qishini o'z hudud(viloyat)idagi oliy ta'lim muassasasiga ko'chirishda cheklovlarni kiritish talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, uzoq hududda talabalarining o'qish imkoniyatiga oila daromadi ta'sir ko'rsatadi. Vaholanki, oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida turli xil tanlovlarning tashkil etilishi, tanlov ishtirokchilari va g'oliblarni rag'batlantirilishi bir tomondan, oila daromadi ta'sirini yumshatsa, ikkinchi tomondan talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muratov Sh., Parдав Kh., Hasanov Sh. Assessment of the impact Covid-19 pandemic on family income from non-farm activities //Irrigation and Melioration. – 2020. – T. 2020. – №. 4. – C. 95-98.
2. Gutiérrez-Romero R., Ahamed M. COVID-19 response needs to broaden financial inclusion to curb the rise in poverty //World Development. – 2021. – T. 138. – C. 105229.
3. Unicef et al. Averting a lost COVID generation: a six-point plan to respond, recover and reimagine a post-pandemic world for every child. – UNICEF, 2020.

4. Chaturvedi K, Vishwakarma D. K., Singh N. COVID-19 and its impact on education, social life and mental health of students: A survey //Children and youth services review. – 2021. – Т. 121. – С. 105866.
5. Sari R., Soytaş U. Income and education in Turkey: A multivariate analysis //Education Economics. – 2006. – Т. 14. – № 2. – С. 181-196.
6. Sumner A., Hoy C., Ortiz-Juarez E. Estimates of the Impact of COVID-19 on Global Poverty. – WIDER working paper, 2020. – №. 2020/43.
7. Lin T., Lv H. The effects of family income on children's education: An empirical analysis of CHNS data //Research on Modern Higher Education. – 2017. – Т. 4. – С. 02002.
8. Kodde D. A., Ritzen J. M. M. Direct and indirect effects of parental education level on the demand for higher education //Journal of Human Resources. – 1988. – С. 356-371.
9. Kinsler J., Pavan R. Family income and higher education choices: The importance of accounting for college quality //Journal of human capital. – 2011. – Т. 5. – №. 4. – С. 453-477.
10. Nazarova B. et al. Education Development In Uzbekistan //Voice of Research. – 2015. – Т. 43.
11. Acemoglu D., Pischke J. S. Changes in the wage structure, family income, and children's education //European Economic Review. – 2001. – Т. 45. – №. 4-6. – С. 890-904.
12. Reardon T. et al. Effects of non-farm employment on rural income inequality in developing countries: an investment perspective //Journal of agricultural economics. – 2000. – Т. 51. – №. 2. – С. 266-288.
13. Sari R., Soytaş U. Income and education in Turkey: A multivariate analysis //Education Economics. – 2006. – Т. 14. – №. 2. – С. 181-196.
14. Hoang T. X., Pham C. S., Ulubaşoğlu M. A. Non-farm activity, household expenditure, and poverty reduction in rural Vietnam: 2002-2008 //World Development. – 2014. – Т. 64. – С. 554-568.
15. Barber B. L., Stone M. R., Eccles J. S. Adolescent participation in organized activities //What Do Children Need to Flourish?. – Springer, Boston, MA, 2005. – С. 133-146.
16. Daoud J. I. Multicollinearity and regression analysis //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2017. – Т. 949. – №. 1. – С. 012009.
17. Al-Malkawi H. A. N. Determinants of corporate dividend policy in Jordan: an application of the Tobit model //Journal of Economic and Administrative Sciences. – 2007.
18. Adebayo N. O., Fagoyinbo I. S., Olatayo T. O. Estimation of the effect of multicollinearity on the standard error for regression coefficients //Journal of Mathematics. – 2014. – Т. 10. – №. 4. – С. 16-20.
19. Fullerton A. S. A conceptual framework for ordered logistic regression models //Sociological methods & research. – 2009. – Т. 38. – №. 2. – С. 306-347.
20. Nwakuya M. T., Mmaduka O. Ordered logistic regression on the mental health of undergraduate students //International Journal of Probability and Statistics. – 2019. – Т. 8. – №. 1. – С. 14-18.
21. <https://www.humanium.org>

### АГРАР СОҶАНИ МОЛИЯЛАШТИРИШДА ЛИЗИНГ ҲИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

**Эркинхожиев Исмоилжон Икромжон ўғли -**  
Тошкент давлат аграр университети  
мустақил изланувчи

**Аннотация.** Ушбу мақолада ҳозирги пайтда аграр соҳани молиялаштиришда амалга оширилаётган туб ислохотлар, қишлоқ хўжалиги техникаларини лизинга беришда давлат томонидан ташкилий-иқтисодий қўллаб-қувватлаш, чуқур таркибий ўзгаришлар натижасида аграр соҳада қишлоқ хўжалиги техника воситаларидан фойдаланишни ташкилий ва иқтисодий омиллари кўриб чиқилган.

**Асосий тушунчалар:** аграр, молиялаштириш, қишлоқ хўжалиги, техника, фермер хўжалиги, иқтисодий, омил, восита, ишлаб чиқариш, ташкилий-иқтисодий, машинасозлиги, самарадорлик.

### ПУТИ РАЗВИТИЯ ЛИЗИНГОВЫХ УСЛУГ В ФИНАНСИРОВАНИИ АГРАРНОГО СЕКТОРА

**Эркинхожиев Исмоилжон Икромжон ўғли -**  
Ташкентский государственный аграрный  
Университет соискатель

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены реформы проводимые в системе финансирования аграрного сектора на современном этапе, организационно-экономическая поддержка со стороны государства в предоставлении сельскохозяйственной техники на основе лизинга, организационно-экономические факторы использования сельскохозяйственной техники в аграрном секторе на фоне коренных структурных преобразований.

**Ключевые слова:** аграрный, финансирование, сельскохозяйственный, технический, фермерский, экономический, фактор, средства, производственный, организационно-экономический, машиностроительный, эффективность.